

**BOLALARNING JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA HARAKATLI O‘YINLARDAN SAMARALI FOYDALANISH**

*Qurbonova Shaxnozaxon Ikromidin qizi*

*Andijon davlat pedagogika instituti, jismoniy madaniyat fakulteti xotin qizlar sporti yo'nalishi talabasi.*

*Musayeva Dilrabo Muhammadjon qizi*

*Andijon davlat pedagogika instituti, jismoniy tarbiya va xotin-qizlar sporti kafedrasi o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Maqolada harakatli o‘yinlari bolaning jismoniy, ruhiy, aqliy faolligini oshirishdagi ahamiyati, ularni xar tomonlama rivojlanishida ko‘nikma, malaka, jismoniy, aqliy va ruhiy sifatlarning shakllanishi o‘rganildi va taxlil qilindi.

**Kalit so‘zlar:** harakatli o‘yinlar, diqqat, xotira, tafakkur, didaktik o‘yin, tinch o‘yin, ijodiy o‘yin, yirik motorika, mayda motorika, sensomotorika, kompetensiya.

**Аннотация:** В статье изучено и проанализировано значение подвижных игр в повышении физической, умственной и интеллектуальной активности детей, формировании умений, компетенций, физических, умственных и духовных качеств в их всестороннем развитии.

**Ключевые слова:** игры-действия, внимание, память, мышление, дидактическая игра, спокойная игра, творческая игра, крупная моторика, мелкая моторика, сенсомоторика, компетентность.

**Abstract:** In the article, the importance of mobile games in increasing the physical, mental and intellectual activity of children, the formation of skills, competences, physical, mental and spiritual qualities in their comprehensive development was studied and analyzed.

**Key words:** action games, attention, memory, thinking, didactic game, quiet game, creative game, large motor, small motor, sensorimotor, competence.

### KIRISH

Yosh avlodni dunyoqarashini shakllantirish hamma davrlarda millatning ilg‘or kishilari diqqat markazida bo‘lib kelgan. Insoniyat boshidan kechirgan barcha tuzumlarda davrning o‘qimishli, ziyoli, ilimdon kishilari, dunyo ilm faniga umuminsoniy madaniyatiga salmoqli hissalarini qo‘shganlar. Ilim dunyoqarashning asosi bo‘lib hisoblanadi. Talim- tarbiya olish albatta bolalikdan boshlanadi. «Yoshlikda olingan ilim toshga o‘yilgan naqshdir», - deydi dono xalqimiz. Shunday ekan, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarda mashg‘ulotlar o‘yin faoliyatlari asosiga olib boriladi. O‘yinlar faoliyati bola hayotida uning jismoniy, ruhiy, aqliy kamolotga etishishida muxim vosita xisoblanadi. O‘yinlar orqali bolada tafakkur, tasavvur, xotira,

diqqat kabi ruhiy jarayonlari rivojlanadi va atrof-muhit haqidagi bilimlari yanada kengayib boradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida harakatli o'yinlarni to'g'ri tashkil etish, harakatli o'yinlardan unumli foydalanish, mashg'ulotlarda tarbiyalanuvchilarning talim- tarbiya olish samaradorligini oshiradi. O'yin faoliyati tinch va harakatli turlarga bo'linadi. O'yinlar bola uchun qiziqarli, unga tanish bo'lgan voqealardan iborat bo'lishi tarbiyachining mahoratiga bog'liq.

Harakatli o'yinlar bolalarni chaqqonlik, epchillik, diqqat va e'tiborini jamlash va sezgirligini oshiradi.

Xalq o'yinlaridan "Ko'zboylagich", "G'ozlar", "Oq terakmi ko'k terak" o'yinlari orqali, bolalarni motorik harakatlari rivojlantirilib boriladi. Bu ayniqsa ertalabki sayrdan keyin va kechki sayrdan keyin tashkil etilsa, yuqori samara beradi.

Harakatli o'yinlar bolalarning jismoniy faolligini oshirib, o'ziga bo'lgan ishonchini orttiradi. Harakatli o'yinlarda sport jixoz va anjomlardan foydalanish mumkin. Masalan, arqon, koptokdan foydalanish, bolada musobaqalashish hissini uyg'otadi. Bunda koptok ko'proq samara beradi. Jixozlangan sport maydoni va xonalarida tirmashib chikish, tortishish, o'mbaloq oshish va emaklash kabi mashqlarni o'rgatish, shu bilan birga, "Olish", "Tortishmachoq", "Arqonda sakrash" kabi o'yilari, bolalarni jamoa bo'lib o'ynash, chamalash, e'tiborni kuchaytirish kabi, fazilatlarini oshiradi va yirik matorikani rivojlanishida ko'proq samara beradi.

Tinch o'yinlarga ayniqsa yig'ma o'yinlardan ko'p foydalaniladi. Bu o'yinlar, "Nima qaerda", "Kimning qo'lida", "Men aytganni ko'rsat" kabilar kiradi. Xozirda, bolalar uchun juda qiziqarli o'yinlardan "pazllar" va "mozaikalar" zamonaviy turlari juda ko'p bo'lib, bolalarni diqqatini jamlaydi, e'tiborini kuchaytiradi, ziyrakligini, topqirligi oshiradi.

Voqeaband o'yinlar bolalarni ijro qobiliyatini oshirib, qurshab turgan insonlar hayoti, o'zaro munosabati, yashash tarzi haqida ma'lumot oladi va tanishadi. Bolalar ayniqsa, kattalar hayotiga qiziqishadi, ularga taqlid qilishadi. Qiz bolalarni kuzatganda, do'stlari bilan mehmondorchilik o'yinlarida, uyda ko'rgan va eshitganlarini takrorlayotganligini guvohi bo'lishingiz mumkin. Bundan tashqari "Oshxona", "Sartarosh", "Tikuvchi", "Quruvchi", "Do'konda", "Maktab-maktab" o'yinlari orqali bilimi, qiziqishi, o'zgalar mehnatiga hurmat, ahil va inoqlilik, xushmuomalalik, shirinsuhanlik kabi xususiyatlar o'stirib boriladi. SHu bilan birga, yosh hususiyatlarni inobatga olgan holda, "SHolg'om", "Bo'g'irsoq", "Zumrad va Qimmat", "Bo'g'irsoq" ertaklarini sahnalashtirish orqali, she'rlar, qo'shiqlar yodlaydi, va fikrlash doirasi kengayadi, so'z boyligi oshadi, nutqi ravon bo'ladi, nafosat va go'zallikni xis qilishi shakllanadi (estetika), o'zini qo'lga olishni o'rganadi, ijrochilik mahorati oshadi.

### MAVZUNING DOLZARBLIGI

O‘yinlarni tashkil etishda, tarbiyachi o‘yinlarning mazmunli, qiziqarli bo‘lishi uchun, ko‘rgazmali qurollardan, anjom va buyumlardan ko‘proq foydalanadi. Bu esa bolalarni xarakterini faollashtirishda yordam beradi. O‘yinlar orqali bolalar ko‘rish, eshitish, buyumlarni shakli, rangi, tuzilishi, xususiyatlari haqida ham bilib oladilar. SHu bilan birga narsalarni bir-biri bilan taqqoslash, guruhlashni o‘rganadilar.

Og‘zaki o‘yinlarning ham bolalar uchun foydali tomonlari ko‘p. Bunda ham yosh xususiyatlari inobatga olingan holda faoliyat olib boriladi. “Sabzavotlarni top!”, “Mavalarni ayt!”, “Qaysi xayvon qanday ovoz chikaradi?”, “Mevasini top”, “Bu nima uchun?”, “YOvvoyi va uy xayvonlari”, “Ayting biz topamiz”, “Topgan topaloq” o‘yinlar orqali xayvonlar, mevalar, sabzavotlar haqida bilimlari oshadi, fasllar va unda kiyiladigan kiyimlar turlari, xususiyatlari haqida bilib oladilar. Qurish, bilish, tasavvurlar boyitilib, rivojlantiriladi.

Musiqaga bo‘lgan xissiyotni oshirishda ham o‘yinlar faoliyatining roli juda kattadir. Tarbiyachi bolalarga cholg‘ularni chalib berish orqali ularga nisbatan mehr uyg‘otadi. “Audio eshitish orqali top», “Men nima chalayapman?”, “Qo‘ng‘iroq ovozi” kabi tovushlarni topish haqidagi o‘yinlarni o‘ynash orqali, cholg‘u asboblarni xususiyatlari farqlashni o‘rganadi. “O‘ynab ber”, “Sanamalar”, “YOMg‘ir” kabi ritmik harakatlarni o‘rgatuvchi o‘yinlar ijro etish, harakatlarni to‘g‘ri bajarishni o‘rgatadi.

Maktabgacha talim tashkilotlarida, o‘yin faoliyatlari turlariga ijodiy o‘yinlar kiradi. Didaktik o‘yilar ana shunday o‘yinlar turlariga kirib, ma‘lum bir qoidaga asoslanib o‘ynaladi. Bunda bolalarning ayniqsa, bilim olish ko‘nikma va malakalari xamda motorikalari rivojlanadi. “Rangiga mosini top», “SHaklini top”, “Nima ortikcha?” kabi o‘yinlar orqali, ma‘lum qoidaga asoslanib bajarishni o‘rganadilar, olingan bilimlar mustahkamlanadi,

### **XULOSA**

Maktabgacha ta‘lim tashkilotida talim va tarbiya ishlari jismoniy tarbiya oqituvchis va tarbiyachi pedagoglar tomonidan amalga oshiriladi.

O‘yinlar orqali, maktabgacha yoshdagi bolalar har tomonlama rivojlanadi, ko‘nikma va malakalari(kompetensiya) shakllanadi, jismoniy faolligi rivojlanadi xamda aqliy va axloqiy fazilatlarini shakllanadi. Bolaning ta‘lim- tarbiyasida o‘yinlarni mazmunli, maqsadli va qiziqarli tashkil etish orqali, ularni barkamolligi taminlanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi, I. V. Grosheva. L. G. Evstfoeva. D. T.Maxmudova. SH. B. Nabixanova. S. V. Pak, G.E. Djanpeisova. Toshkent-2018 y.
2. Usmonxo‘jev T.S. “ Harakatli o‘yinlari”, T.Meditsina-1999 y.
3. Qoraboev U” O‘zbek xalq o‘yinlari”, Toshkent-2001 y.
4. Азизходжаева Н.Н. Педагогическое мастерство- Т. Фан ва ахборот технологиялари, 2006 й.
5. D. R. Babaeva, Nutq o‘stirish metodikasi,( o‘quv qo‘llanma),“ Fan va texnologiya”, 2009.128 bet.